

**MARIYA MONTESSORI METODIKASINING BOLALAR HAYOTIDAGI  
AHAMIYATI**

**Ismoyilova Muslima Nabi qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti maktabgacha*

*ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi*

**Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi**

*Termiz agrotexnalogiyalar va innovatsion rivojlanish instituti*

*o’simliklar va qishloq xo’jaligi mahsulotlari karantini yo’nalishi 1- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mariya Montessori metodikasi va uning bolalar hayotida tutgan o’rni va ahamiyati keng targ’ib etilgan.

**Kalit so’zlar:** metodika, bolaning ruhiy holati, bolaning o’sishi, sensor tarbiya haqida.

Nizom: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli Ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi qaroriga muvofiq ta’lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish metodika texnologiyalarini keng tadbiq etish ko’zda tutilgan.

Mariya Montessori yaratgan ta’lim metodikasi maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash borasidagi barcha tizimlar orasida alohida ajralib turadi. Montessori metodikasi bo'yicha maktabgacha yoshdagি bolalarni sensor tarbiyalashda quyidagi maqsadlar nazarda tutilishi kerak:

1. Barcha tashqi hissiyotlarni shakllantirish.
2. Tashqi hissiyotlarni tarbiyalash orqali hali to’liq shakllanmagan ruhiy jarayonlarni rivojlantirish kerak.
3. Odatiy bir yoqlama madaniy tasavvurlardan xalos bo’lish.
4. Nutq apparatlari orqali tilni rivojlantirish, so’z boyliklarini oshirish.
5. Bolalarning ruhiy va jismoniy imkoniyatlari muvofiq tarzda o’z-o’ziga xizmat qilishda ehtiyoj va talablarni rivojlantirish.

Yuqorida ko’rsatilgan pedagogik maqsadlarga erishish uchun Montessori yaxshi sharoitda bolani tarbiyalash usullarini tavsiya etadi. Uning materiallari ayniqsa aqliy faoliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sensor tarbiyaning maqsadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning sensor qobiliyatini o’stirishdan iborat.

Sensor tarbiya qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bolalar buyumning faqat nimaga ishlatalishini, nomigagina bilishi yetarli bo’lib qolmay, balki ular buyumlarni chuqurroq idrok etishi, ularni ushslash, ular bilan muomalada bo’lganda xilma-xil sezgilar ham ishtirok etishi juda muhimdir, deb biladi. Tarbiyachi sensor tarbiyaning ana shu tomonlariga alohida e’tibor berishi, buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo’yishda

uning og'irligini his qilish,buyumni qo'lga olib,uning sirtini sezishi va sifatini issiq yoki sovuqligini ana shunga o'xshashlarini aniqlashi kerak.

Belarussiyada Montessori pedagogikasi 1991-yildan boshlab faol rivojlanma boshladi.90-yillarning boshlarida Belarusda birinchilardan bo'lib, Montessori usullari Brestdagi 40-sonli va Minskda 40-sonli bolalar bog'chalarida qo'llanila boshlandi.M. Montessori bolalarning sezgirlingining boshqa bosqichlariga harakatlar,til,his-tuyg'ular,ijtimoiy-ko'nikmalar,kichik narsalarga qiziqishning rivojlanish bosqichini bog'ladi.

Montessori bolaning rivojlanish bosqichini asosiy sensorli ko'nikmalar-yurish,kosmosda harakat qilish asoslari va muloqot qobiliyatlarini o'rgatish deb belgilaydi.Ikkinchi bosqich 3 yoshdan 6 yoshgacha.Bu "singdiruvchi ong",til,hissiy rivojlanish davri.

Montessori shuningdek bolalarda tartibning sezgir bosqichini aniqladi,bu Montessorining kuzatishlariga ko'ra bolalarda tug'ilishdan 4 yoshgacha davom etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-sonli qarori.
- 2.Maktabgacha pedagogika. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.Azamova.
- 3.w.w.w.ziyo.net
- 4.w.w.w. pedagog.uz